

## INKVIZITSIYANING UCH BUYUK QURBONI

**Fatxullayev Nuriddin**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti Tarix va filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biz XVI-XVII-asrlarda yashab o'tgan va olamga bo'lgan qiziqishi ortib, uni tadqiq etgan, shu bilan birgalikda astronomiyaga oid ko'plab kashfiyotlarni amalga oshirgan, yerning harakatsizligi to'g'risidagi talimotdan voz kechgan va shu fikrlari uchun shavqatsiz inkvizitsiya tarafidan turli qiynoqlarga giriftor etilgan Nikolay Kopernik, tiriklayin gulxanga tashlangan Jordanu Bruno va keksaligiga qaramasdan cherkov sudida majburan "Tavba" qildirilgan Galileo Galiley haqida so'z yuritamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Islom Karimov, Nikolay Kopernik, Jordanu Bruno, Galileo Galiley, Inkvizitsiya, Cherkov sudlari, teleskop, ilm-fanga oid o'z davri uchun yangicha bo'lgan fikrlar.*

Tarixni o'qish davomida bizlar ko'proq buyuk davlatlar, mard va jasur sarkardalar, vatani va dini yo'lida jon olib, jon bergan turli xil qahramonlarni, o'z davlati sarhadlarini sharqu-g'arbga qadar yuksaltirgan Amirlar, Xonlar va Podshohlar hayotini o'qib-o'rganamiz. Ulardan o'zimizga tegishli xulosalar chiqaramiz. Tarixda shunday zotlar ham borki ular na davlat qurdilar va na vatan yo'lida jang qildilar. Lekin shunga qaramay ularning nomi hozirga qadar hurmat bilan tilga olinadi. Ana shunday buyuk siymolar qatorida biz Nikolay Kopernik, Jordanu Bruno, Galileo Galileylarni ham sanab o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Bu buyuk zotlar haqida hammamiz uchun qadrlil va qadrdon bo'lgan birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov(1938-2016) o'zlarining iliq fikrlarni bildirganlar: " ...Ilmiy kashfiyotlari uchun tazyiq va taqiblarga uchragan Nikolay Kopernik hamda keyinchalik uning izidan borib, joxil va aqidaparast ruxoniylar tomonidan o'tga tashlangan Jordanu Bruno, qanchadan-qancha ta'na va malomatlarga giriftor etilgan Galileo Galiley kabi allomalarning jasoratida ham haqiqatga sadoqat, etiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz"

Hayotini ilm-fanga bag'ishlagan va turli bosimlarga qaramay o'zining fikrlaridan qaytmagan Nikolay Kopernik 1473-yilning 19-fevralida Polshaning Toruni shahrida tavallud topgan. Otasi badavlat savdogar bo'lib, ular bu shaharga Germaniyadan ko'chib kelishgan. Oilada to'rtinchi farzand bo'lgan Nikolay Kopernik o'n yoshigacham farovon hayot kechirgan, lekin afsuski baxtli bolalik uzoqqa cho'zilmadi. Sababi Yevropa aholisining qariyb yarmini hayotdan olib ketgan halokatli o'lat yosh Kopernikning otasini ham cheklab

o'tmadi. Barcha buyuk zotlarda kuzatilgani kabi Kopernik ham yoshligida otasidan yetim qoladi va uning keyingi hayotida tog'asi unga dalda bo'ladi. Keyinchalik esa Boloniyada talim oladi va astranomiya bo'lgan qiziqish shu yerda kurtak yoza boshlaydi. Xattoki hali o'ttizga ham chiqmagan yosh olim 1497-yil astranom Domeniko Mari Novara bilan ilk astranomik kuzatishlarni amalga oshiradi. Shu alfozda Kopernik zamonasining eng ko'zga ko'ringan astronomi bo'lib yetishadi. Nikolay Kopernik keyingi faoliyati davomida matematika, tasviriy san'at, huquq, falsafa, tibbiyot va Grek tilini o'rgandi. U o'z davrining "universal" shaxslaridan biriga aylanib ulgurdi, afsuski jaholatga botgan cherkov va cherkov izmidan chiqmaydigan olomon hukmdor bo'lgan tuzumda bunday "iqtidor" sohibi unchalik hush ko'rilmadi. Nikolay Kopernikning geotsentrik nazariyani inkor qiluvchi geliosentik nazariyasi cherkov uchun ayni muddao bo'ldi. Xo'sh bu nazariya o'zi nima edi? bu xususida Kopernik oddiy moslamalar yordamida 30-yil osmon jismlarini kuzatdi va yer o'z o'qi atrofida aylanadi degan xulosaga keldi va yerning xarakatsizligi haqidagi "Qadimiy" talimotdan voz kechdi, xattoki 1543-yilda "Osmon jismlarining aylanishi haqida" kitobini chop ettirdi. Lekin afsuski olimning umri ham kitob chop etilgan vaqtda poyoniga yetdi. Uning do'stlari mazkur asarning Nyurnberg nashriyotlarining birida chop etilgan dastlabki nusxani olib kelishganda olim bir necha daqiqa oldin vafot etgan edi. bu voqea 1543-yilning 24-may kuni sodir bo'ldi. Lekin har narsada xikmat bor deganlaridek o'lim ulug' olimni inkvizitsiya zulmidan qutqarib qoldi.

Italyan faylasufi, kosmolog va shoiri Jordanu Bruno ham ilm yo'lida jonini qurbon qilgan ulug' siymolardan biri hisoblanadi. Jordanu Bruno 1548-yil yanvar oyida Neapolning sharqida joylashgan Nola shahridagi mayda dvoryan oilasida tavallud topgan. U 1566-1575-yillarda monastir huzuridagi maktabda talim olgan. Yosh Bruno maktabda Xristian aqidalari bilan birgalikda Kopernik nazariyalarini ham o'rganadi. U yoshligidan turli nazariyalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan, har bir masala bo'yicha tahliliy fikr yuritadigan bo'lib ulg'aydi. 17-yoshga to'lgan Jordanu Dominikan Monastirida tinglovchi bo'ladi. Monastirda kutubxona ham bo'lib yosh olim asosiy vaqtini o'sha yerda o'tkazar edi. Qancha ko'p o'qigani sayin shaxsiy ideologiyasi ham rivojlanib bordi va xattoki shu darajaga yetdiki Bazan uning fikrlari cherkov aqidalariga zid kelardi va tabiiyki cherkov otalari bu holatni hech qanday sharoitda qabul qila olmas edi. yuqoridagi holatlar Brunoning olim bo'lishida katta rol o'ynagan. cherkov talimotlaridan qoniqmagan Bruno 1575-yilda monaxlikdan voz kechib, bir qancha shaharlarda bo'ladi. Jumladan 1591-yilda Venetsiyalik yosh aristokrat Jovanni Mochinegodan xotira san'atini o'rganish bo'yicha taklif oladi va Venetsiyaga ko'chib o'tadi. Afsuski Brunoning tug'ma qobilyatlari Mochinegoda xasad atalmish razil sifatni paydo qiladi va u inkvizotirlarga Bruno haqida malumot yetkazadi. Bu voqea 1592-yilda yuz beradi. Faylasufni

sud uchun Rimga topshirish talabi Venetsiyaga 17-sentabr kuni kelib tushadi. Brunoni 1593-yil 27-fevralda Rimga olib kelishadi. Yuqoridagi holatlarning eng katta sababi esa Brunoning olam haqidagi qarashlari edi. uning fikricha “Olamning cheki yo’q, u hadsiz va so’ngsizdir. U markazga ega emas, yer ham, quyosh ham olamning markazi emas. Olam bu son-sanoqsiz yulduzlar va har bir yulduz uzoqdagi-quyoshdir. Ularning har biri atrofida o’z sayyorolari aylanadi” Brunoning bundan keyingi hayoti sarson-sargardonlikda o’tadi. U xattoki Yahudiy talimotidagi “Kabbala” ni ham o’rganadi va ruhning ko’chib o’tishiga ishonadi. Keyinchalik Bruno Fransiya, Germani va Angliyada turli bahslarga kirishadi. Afsuki hamma yerda quvg’in, hamma yerda g’azablangan olomon..... keyinchalik Bruno ona yurti Italiyaga qaytadi va tabiiyki uni “Quchoq Ochib” kurib olishmadi. Italiyada ham sakkiz yil qamoqda o’tirdi va oxir-oqibat “Hamma qatori” gulxanda yondiriladi. Bu mudhish voqea 1600-yil 17-fevral kuni sodir bo’ldi. Lekin afsuski olimning fikrlariga qarshi kurash uning o’limidan keyin ham davom etadi. Xattoki 1603-yil uning kitoblari taqiqlangan kitoblar ro’yhatiga kiritiladi. Ha azizlar o’rni kelganda cherkov marhumlarni kitoblarini ham inkvizitsiya orqali “ Jazolar” edi. Lekin keyingi davrlarda haqiqat qaror topib, 1889-yilda ulug’ olim qurbon qilingan “ Gullar” maydonida ulug’ olimga atab haykal qo’yildi va haykal ostiga “ U barcha xalqlar uchun fikr erkinligi, deya o’z ovozini ko’tardi va shu erk yo’lida o’limga bordi” deb yozib qo’yildi.

O’z davrining yana bir noyob irodali va o’tkir aql-zakovat sohibi Galileo Galiley ham afsuski o’z davrining mazlum olimlaridan biriga aylanadi. Buyuk olim 1564-yilning 15-fevral kuni Italiyaning Piza shahrida, kambag’allashgan zodagon oilasida tug’ilgan. Uning otasi Vinchenso Galiley iste’dodli bastakor bo’lgan. Galileyning buyuk olim bo’lishida otasining o’rni katta bo’lgan. U 1575-yilda oilasi bilan birgalikda ilm-fan va gumanistik g’oyalarning o’chog’i bo’lgan Florensiyaga ko’chib keladi. U otasining istagi bilan Evklid va Arximedlarning ilmiy merosini o’rgandi. Otasining o’g’li haqidagi orzusi uning shifokor bo’lishi edi. shuning uchun ham Galiley Piza universitetida ham talim oladi. Lekin yosh iqtidor sohibi keyingi hayotini yuqorida nomlari zikr etilgan safdoshlari kabi Astronomiya va osmon ilmlari bilan bog’laydi.

Galiley keyingi faoliyati davomida geliosentrik nazariyani ham ilmiy dalillar bilan isbotladi. U osmon jismlarini 32-martta kattalashtirib ko’rsatadigan teleskopni yaratadi. Shu teleskop yordamida quyoshda dog’lar mavjudligini va ilm-fanga nomalum bo’lgan boshqa yulduzlarni aniqlaydi. Shu tariqa Galiley osmonni teleskop yordamida kuzatgan Yevropadagi birinchi olimga aylanadi. Uning tadqiqotlariga ko’ra somon yo’li ko’plab yulduzlarning jamlanmasidan iborat, oyning yuzi tog’lar va kraterlar tufayli notekis, Yupiter esa to’rtta yo’ldoshga ega. Uning ixtirolari keyinchalik Kopernik talimotini tasdiqladi. Keyinchalik o’zining ilmiy farazlarini jamlagan “ Yulduzlar axboroti” degan asarini yozadi. Lekin afsuski bu ishlar cherkovning tanqidiga sabab bo’ladi.

Inkvizitsiya uning ishlarini qoraladi va 1616-yilda Kopernik talimoti rasman taqiqlandi. Papa Galileyni cherkov sudiga chaqirdi va 1633-yil 22-iyunida yoshi oltmishdan oshgan, kasalmand va zaif olim Minevra monastirida, gunohkor libosida, tiz cho'kib tavba qildi. Besh oy davom etgan so'roq savollar olimni ancha holdan to'yirdi. Ulug' olim 1642-yil 8-yanvar kuni hayotdan ko'z yumdi.

Lekin keyingi davrlar mobaynida Galileo Galiley shaxsiga hurmat kuchayib, 1971-yil Galileyni sud qilish qarori cherkov tarafidan bekor qilindi va ulug' olimga bo'lgan kamsitishlar uchun uzr so'raldi. Roppa-rosa 329-yilda olim nomi oqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, buyuk zotlar hayoti har doim xavf-xatarga to'la bo'lgan va shu bilan birgalikda ularda har qanday tanqid va tahdidni yengib keta oladigan metin iroda ham bo'lgan. Abdulla Qodiriyning tabiri bilan aytadigan bo'lsak "Haqiqat orqasidan bosh ketsa ix demaydigan" jasoratli shaxslar hamisha topiladi. Sof dinni noto'g'ri talqin qilish va "o'zi tushungan" narsani din deb o'ylash insoniyat boshiga ko'plab kulfatlar keltirgani hech kimga sir emas. Bu kulfatlar yuqorida nomi zikr etilgan olimlarni ham cheklab o'tmadi. Nikolay Kopernikni hozir deyarli hamma eslaydi, lekin u zotga tahdid qilgan inkvizitsiya odamlarini ismi tarixda qoldimi, tabiiyki yo'q. Qolgan taqdirdayam qanday nom bilan eslanayotgani hammaga ayon. Biz bu voqealardan xulosa chiqarishimiz va o'zimizga kerakli o'rnak olsak foydadan xoli bo'lmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. I.A.Karimov. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch, 161-bet. Manaviya-2008
2. SH.Ergashev Jahon tarixi (yangi davr. I-qism. XVI-XVIII-asrlar), 75-78-betlar. Toshkent, "O'zbekiston"-2013.
3. Vikipediya va internet materillari.